

XALQARO MUNOSABATLARDA YUMSHOQ KUCH VA UNING QO‘LLANILISHI

Baxtiyorov Umar Vaisboy o‘g‘li

Diplomat University magistratura bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15754478>

Annotatsiya. Ushbu maqola xalqaro munosabatlarda, bugungi kunda dolzarb omil hisoblangan, “yumshoq kuch”ga bag‘ishlanadi. Maqolada qator rivojlangan, hamda jadallik bilan rivojlanib kelayotgan mamlakatlar, jumladan Amerika Qo‘shma Shtatlari, Xitoy, Hindiston, Turkiya va Janubiy Koreya o‘z “yumshoq kuch”idan qanday foydalanishi, “yumshoq kuch” vositalarining qaysi biri bo‘yicha yetakchi ekanligi, va shu bilan bir qatorda “yumshoq kuch” omilining mohiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Xalqaro munosabatlar, Xitoy, Turkiya, Hindiston, Janubiy Koreya, Yumshoq kuch ta’siri, siyosiy jarayonlarda yumshoq kuch.

Аннотация. Эта статья посвящена "мягкой силе", которая сегодня является актуальным фактором в международных отношениях. В статье рассматривается, как ряд развитых и быстро развивающихся стран, включая Соединённые Штаты Америки, Китай, Индию, Турцию и Южную Корею, использующие свою "мягкую силу," по каким инструментам "мягкой силы" они лидируют, а также, сущность фактора "мягкой силы."

Ключевые слова: Международные отношения, Китай, Турция, Индия, Южная Корея, влияние мягкой силы, мягкая сила в политических процессах.

Annotation. This article focuses on "soft power", which is currently a pressing factor in international relations. The article examines how a number of developed and rapidly developing countries, including the United States of America, China, India, Turkey, and South Korea, use their "soft power," which tools of "soft power" they lead, and the essence of the "soft power" factor.

Keywords: International relations, China, Turkey, India, South Korea, soft power influence, soft power in political processes.

XXI asr globallashuv asri va qator sohalar uchun renessans bosqichi bo‘lgani kabi xalqaro munosabatlarda ham yangi bosqich tamadduniga zamin yaratdi. XX asrda xalqaro munosabatlarda “qattiq kuch”dan ko‘proq foydalanilgan va asosiy urg‘u “qattiq kuch” ga qaratilgan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan, aniqroq qilib aytganda esa, XXI asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon hamjamiyati sahnasida “qattiq kuch” omili o‘rnini “yumshoq kuch” omili egallay boshladi. Chunki “yumshoq kuch”, “qattiq kuch” dan tubdan farq qilardi. “Yumshoq kuch” o‘zining jozibadorligi, xilma-xilligi, va shu bilan bir qatorda, ong ostiga bo‘lgan muntazam ta’siri tufayli siyosat olamida ommalasha boshladi.

“Yumshoq kuch” xalqaro munosabatlarda bir davlatga ta’sir o‘tkazishda ikkinchi davlatning o‘z madaniyati, tili, va shu bilan bir qatorda kinematografiya san’ati kabi qamrovi sezilarli darajada katta bo‘lgan sohalardan foydalanib, o‘z manfaatlarini ustunlikka olib chiqish. Ya’ni bunda birinchi mamlakatning ikkinchi mamlakatga bergan taklif yoki g‘oyasi vaqt o‘tishi natijasida oxir oqibat birinchi mamlakatning manfaatlari uchun xizmat qilishi ko‘zda tutulgan. Bugungi globallashuv jarayonida dunyo hamjamiyatida yetakchi o‘rinlarga ko‘tarilish uchun va barqaror rivojlanish yo‘lini tanlagan holda qator katta kuch markazlari va rivojlangan mamlakatlar ham o‘zlarining “yumshoq kuch”idan har doimgiga nisbatan yanada faol, keng va jozibador shaklidan foydalanmoqda. Amerika federal komissiyasi sobiq raisi Nyuton Menou

ta'kidlaganidek, "g'oyalar uchun sarf etilgan 1\$ mablag' bombalar uchun sarflangan 100\$ mablag'ning qiymatiga tengdir".Qachonki, bugungi kunda olib borilayotgan siyosat faqat bizning emas boshqalarning ham nazdida adolatga asoslangan legitim siyosat sifatida namoyon bo'lsa, shunda "yumshoq kuch"ning ta'siri ortadi va ta'sir doirasi ham kengayadi. O'zining "yumshoq kuchi" dan bugungi kunga qadar to'g'ri va samarali foydalanib kelgan va kelayotgan qator rivojlangan davlatlar, rivojlanayotgan davlatlar hamda katta kuch markazlari (AQSh, Xitoy va boshqalar) mavjuddir va bulardan biri Amerika Qo'shma Shtatlaridir. Albatta Amerika Qo'shma Shtatlari bu borada uzoq tarixiy va o'ziga xos tajribaga ega. Jumladan ikkinchi jahon urushi yakunida Franklin Ruzvelt ilgari surgan "To'rt ozodlik" g'oyasining ta'siriga qaralsa, uning ta'siri natijasida Yevropa yoshlari "temir pardalar" ortidan turib "Ozod Yevropa" radiosi orqali Amerika yangiliklari va musiqasini tinglagan; Xitoylik talabalar esa Tyan-men maydonidagi noroziliklarining ramzi sifatida aynan Ozodlik haykali namunasini yaratgan; 2001-yilda esa, ozod afg'onlar "Huquqlar to'g'risidagi Bill"ning nusxasini so'rab murojaat etgan; bugungi kunlarda esa Eron yoshlari o'z uylarida, taqiqlangan bo'lishiga qaramasdan, Amerika kinolari bilan birgalikda videolarini ham tomosha qilishmoqda va bunday holatlar albatta Amerikaning kuchli va samarali bo'lgan "yumshoq kuchi"ga yaqqol misoldir. Amerika nazdida, agar-ki bir davlat boshqalarni o'z oliy maqsadi sari yo'naltirsa va o'zining maqsadini, ularning ham maqsadi sifatida shakllanishi uchun sog'lom muhitni yaratsa, bu holatda, albatta, "qattiq kuch"ning bir ma'nosi qolmaydi chunki "yumshoq kuch"ning tasiri ancha samaralidir. "Yumshoq kuch", aynan demokratiya, inson huquqlari va shaxsning imkoniyatlari bular bilan ayni qatorda ko'plab qadriyatlar mohiyatan juda yaqindir.

General Uesli Klark ta'kidlab o'tganidek "yumshoq kuch bizga an'anaviy kuchlar muvozanati siyosatning murakkab davridan ko'ra, ancha uzoq muddat ta'sir ko'rsata oldi", ammo agarda takabburlik bilan harakat qilinsa bu qadriyatlarning asl qiymatini yo'qqa chiqarishi va yanada ziddiyatlisi esa kuchli nafratning paydo bo'lishi mumkinligidir.

Yumshoq kuchning asosiy vositasi hisoblangan ilm-fan ham Xitoy nazdida albatta qator "eshiklar" uchun "kalit" vazifasini o'tab kelmoqda. Butun dunyo mamlakatlari orasida o'zining yetakchi iqtisodiyoti orqali yuqori o'rinlarni band qilib kelayotgan Xitoyning Afrika qit'asiga qaratilgan yumshoq kuchini Misrdagi harakatlari orqali anglab olish qiyin emas. Misr Afrika qit'asining o'ta muhim darvozasi hisoblanadi. Misrdagi Suvaysh kanali esa O'rtayer dengizini, Qizil dengiz va Hind okeani bilan bog'laydigan muhim suv yo'lidir. Misrning 100 milliondan ortiq aholisi esa albatta Xitoy uchun muhim iste'mol bazasidir. Qohira universitetida, Konfutsiy institutining tashkil etilishi, dastlab faqat Xitoy madaniyatini ommalashtirish va xitoy tilini o'rgatish maqsadida tashkil etilgan bo'lsa-da, aslini olganda bu ham Xitoyning "yumshoq kuchi"dan naqadar samarali va xatosiz foydalanishiga yaqqol misoldir.

Diplomatik tashabuskor, katta kuch markazlarining bosimidan ancha yiroq bo'lgan, musulmon dunyosida o'z o'rniga ega bo'lgan, islom dunyosining "vorisi" hisoblangan Turkiya esa o'zining "yumshoq kuch"ini qo'llashda boshqa davlatlardan ajralib turadi. Qulay geografik joylashuvi, betakror tili, jozibador madaniyati, yoqimli musiqasi va albatta kundan kunga rivojlanib borayotgan kinomatografiya va turizm sohalari orqali Turkiya o'z "yumshoq kuch"idan har doim unumli foydalanib kelgan. Turkiya so'nggi yillarda o'z davlat tilini ingliz tili kabi ommalashishiga hamda jadal sur'atlarda turk tilini o'rganuvchilarning sonini oshishiga o'zining "yumshoq kuch"i orqali erishdi deyilsa, albatta mubolag'a bo'lmaydi. Bundan tashqari Turkiya bugungi kunda o'zining turistik zonalarini orqali ham yiliga millionlab tashrif

buyuruvchilarni hamon o'z madaniyati, qadriyati va jimjimadorligi bilan o'ziga rom qilmoqda. Yumshoq kuch tushunchasi asrlar davomida shakllanib sayqallanib kelgan tushunchadir va albatta tarix bilan chambarchas bog'liqdir.

Hindiston misli ko'rilmagan madaniy xilma xilligi, tarixi, rivojlanib borayotgan iqtisodiyoti, an'anaviy va jo'shqin raqslari, asl va yorqin ranglari bilan tanish bizga. Hindiston o'sib borayotgan "yumshoq kuch"i bugun global kuchga aylanib bormoqda. Hindistonning madaniy eksporti butun dunyo odamlarining qalbini zabt etib kelmoqda. Hind kino sanoati ya'ni Bollivud global hodisa hisoblanadi va ko'plab xalqaro muxlislarga ham ega. Yana shuni ham qayd etish kerakki, Hindistonda dunyoning qator nufuzli oliygohlari joylashgan, dunyoning to'rt tomonidan iqtidorli talabalarni jamlagan va albatta xalqaro e'tirofga sazovor bo'lgan. Dunyo bo'ylab tarqalgan hind diasporasi ham albatta Hindistonning "yumshoq kuch"ining oshib borishida muhim rol o'ynaydi. Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Kanada va qator boshqa davlatlarda istiqomat qiluvchi millionlab hindistonliklar texnologiyadan tortib siyosatgacha bo'lgan barcha sohalarida muvaffaqiyat qozonib kelmoqda. Kamala Harris, Sundar Pichai va Satya Nadella kabi taniqli shaxslar hind diasporasining global ta'sirga ega bir nechta misolidir. Hindistonning dunyodagi eng yirik demokratiya maqomiga egaligi va dunyoviylik hamda plyuralizmga sodiqligiga jozibador atributlar sifatida qaraladi. Din, madaniyat va til xilma-xilliklariga ega bo'lsada, millat sifatida turli e'tiqodlar bilan uyg'unlikda yashashning yaqqol misoli bo'lib kelmoqda. Hindistonning tashqi siyosati qarama-qarshilikka emas balki hamkorlikka urg'u berilgan va "qo'shilmaslikka" asoslangan shu qatorda albatta bu barqaror rivojlanish uchun poydevor sifatida xizmat qiladi.

Texnologiya va an'analari umumlashmasi orqali global auditoriyani o'ziga jalb etayotgan, noyob madaniyatga ega, Koreya "yumshoq kuch"i o'z navbatida mamlakatni iqtisodiy va siyosiy sohalaridan tashqarida ham ta'sir o'tkazish qobiliyatini oshirib, tobora global madaniy qudratga aylanib bormoqda. Koreya "yumshoq kuch"ining markazida koreys ommabop madaniyatining global tarqalishi bilan tafsiflangan "Hallyu" koreys shou-biznes to'liqini yotadi. K-dramalar, K-pop va filmlar Seuldan San-Paulugacha bo'lgan tomoshabinlarni o'ziga jalb etib, dunyo bo'ylab yoyilgan. BTS, BLACKPINK kabi guruhlarining xalqaro muvaffaqiyati hisoblansa, "Saroy Javohiri", "Moviy dengiz afsonasi" kabi dramalar koreys madaniyatining global jozibadorligini namoyish etadi. Koreyaning "yumshoq kuchi" faqat shou-biznes sanoati bilan chegaralanmaydi. Koreya hukumati madaniy diplomatiyani ham faol rivojlantirmoqda. Butun dunyo bo'ylab koreys madaniyat markazlari va madaniy almashinuv dasturlari kabi tashabbuslar xalqlar o'rtasida o'zaro do'stlik va hamkorlik aloqalarini rivojlanishiga hissa qo'shmoqda. Madaniy sohadan tashqari, Janubiy Koreyaning texnologik qobiliyati ham uning "yumshoq kuch"iga ulkan ta'sir ko'rsatmoqda. Samsung va LG kabi brendlar innovatsiya va sifatning sinonimiga allaqachon aylanib ulgurdi. Koreys kosmetika mahsulotlarining jahon miqyosida ulkan nufuz bilan qabul qilinishi va Koreya texnologiyasidan keng foydalanishiga o'tilishi mamlakatning ijobiy global imidjini mustahkamlashga yanada yordam beradi. K-pop va texnologiya zamonaviy munozaralarda ustunlik qilsa-da, an'anaviy koreys san'ati ham mamlakatning "yumshoq kuch"ida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Xanboklarning go'zalligidan tortib an'anaviy raqsning nafisligiga qadar, bu madaniy elementlar Koreyaning boy va ko'p qirrali tarixini namoyon etish orqali uning azaliy merosiga bo'lgan global hurmatini chuqurlashtiradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, har bir davlatning "yumshoq kuch"ining kuchli taraflari bo'lgani kabi uning kamchiliklari va zaif taraflari ham mavjuddir. Masalan bir taraf "yumshoq kuch"ga haddan tashqari urg'u berish davlatning asl madaniyatini susayishiga

olib keladi, desa ikkinchi taraf davlatning jahon sahnasidagi nufuzini oshiradi deya baho beradi. Bugungi globallashuv jarayoni jadallashib borayotgan bir davrda buyuk strateg Sun Szi aytganidek

“ G‘alabaning eng a‘losi yuz marta jang qilib yuz marta g‘alaba qozonish emas, balki jang qilmasdan g‘olib bo‘lishdir”. Ushbu ta’rif “yumshoq kuch”ga berilgan eng to‘g‘ri hamda o‘rinli ta’rif sifatida tarix zarvaraqlariga muxrlangan.

REFERENCES

1. https://t.me/sharqshunos_tahlilchilar
2. <https://kun.uz/news/2023/07/19/ozbekiston-tashqi-siyosatida-yumshoq-kuch-strategiyasini-ishlab-chiqish-vaqti-keldi-siyosatshunos>
3. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Yumshoq_kuch_\(roman\)](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Yumshoq_kuch_(roman))
4. <https://www.wcfia.harvard.edu/publications/soft-power-means-success-world-politics>
5. <https://softpower30.com/what-is-soft-power/>
6. <https://www.diplomacy.edu/resource/soft-power-the-means-to-success-in-world-politics/>